

TO'RAQO'RG'ON TUMAN TARIXI VA GEOGRAFIYASI

Axmedov Sanjar Bektemirovich

t.f.f.d (PhD) Perfect Unversity "Gumanitar fanlar" kafedrasi dotsent v.b

Musayeva Kamola

Perfect Unversity tarix fakulteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Namangan viloyating To'raqo'g'on tumanining tashkil topishi, tuman nomi haqida, geografik joylashuvi, tarixiy obidalar, aholisi, yashab ijod qilgan marifat yetakchilari, tumanda joylashgan "Axsikent" yodgorligi haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlari: *To'raqo'rg'on, Shirinbuloq, Axsikent, Is'hoqon To'ra Ibrat, madrasa, "Lug'at sitta aslina", Ibrat bog'i, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti.*

Kirish qismi: To'raqo'rg'on tumani – Namangan viloyatida 1936- yilning 17 fevralida tashkil etilgan eng birinchi tumanlaridan biri sanaladi. Tuman viloyatning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Kosonsoy, g'arbda Chust, janubda Mingbuloq tumanlari va qisman Namangan shaxri bilan chegaradosh. Tumanning geografik o'rnini asosan past balandliklar va qir adirliklardan iborat. Tumanning asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Iqlimi mutadil. Dengiz sathidan 547 metr balandlikda joylashgan. Hududi 309 kv km bo'lib, aholisining soni oxirgi malumotlarga ko'ra 193330 nafarni tashkil etadi. Tumanda ayni vaqtda 19 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Tuman hududi issiq mineral buloqlarga boy sanaladi. Ayniqsa Shahand suvlari inson organizimi uchun foydaliligi isbotlangan. Bundan tashqari tuman markazidan uncha uzoq bulmagan Shirinbuloq dam olish maskanida ham foydali va juda muzdek buloq qaynab chiqadi. Tuman markazi To'raqo'rg'on shahri bo'lib unda aholi soni 21.0 ming kishini tashkil etadi. Aholining umumiy miqdoring 99 foizini o'zbeklar tashkil etadi, tojiklar 0,08 foizni, tatarlar 0,1 foizni, ruslar 0,06foizni qolgan foizlarni boshqa millat vakillari tashkil etadi. Tuman hududidan 2ta daryo Norin va Qora daryo oqib utib, bu daryolar qo'shilib O'rta osiyoning asosiy suv havzalaridan biri Sirdaryoni tashkil etadi. Tumanda hali ishga tushurilmagan noyob qazilma boyliklari ning zahirasi mavjud. Ularning asosiy qismi tuman janubida joylashgan.

Asosiy qismi: Tumanga To'raqo'rg'on nomini berilishi qadim zamonlardan bu yerlarda din va ilmi baland bo'lgan To'ralar qo'rgoni joylashgan bo'lgan bo'lib keyinchalik bu nom tumanga To'raqo'rg'on nomini berilishiga asos bo'lgan. Tuman hududida tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib bularga misol qilsak Axsikent yodgorligi, Mo'nchoqtepa yodgorliklari. Ulardan topilgan noyon qazilma

buyumlari hozirda tuman o'lkashunoslik muzeyida saqlanadi. Axsikent yodgorligi tumanning Shahand qishlog'i hududida Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan shahar harobasi bo'lib miloddan avvalgi 3-2 asrlarda vujudga kelgan. Milodiy 9-10 asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida tilgan olingan qadimiy shaharlardan biridir. Axsikent yodgorligi Qashg'ardan g'arbiy tomonda Buyuk ipak yo'li karvonlari to'xtash joyi bo'lib, nafaqat savdo markazi balki ishlab chiqarish markazi sifatida ham mashhur bo'lib, shaharda kaolin bilan qoplangan eritish pechlarida tayyorlangan po'lati Damashq va Bag'dod shaharlarida juda mashhur bo'lgan. Shahar hom g'isht bilan o'ralgan mudofa devorlari, qal'alari bo'lgan. Devor balandligi 20 metrga yaqin, qalinligi 10 metrga yetgan. Miloddan avvalgi yillarda shaharda ichki ark qismlariga va qal'alarga sopol quvurlarda suv olib kelingani qazilma ishlarida ma'lum bo'lgan. Milodning 5-6 asrlarida shaharda aholi uylari 5.6 xonali qilib qurilgan. Axsikent shahri avval kushonlar, keyin esa turkiy qabilalar tomonidan bosib olingan. Shaharning eng qadimiy tarixi haqidagi tushunchalar Xitoy manbalarida va arxeologik qazishmalardan bizgacha yetib kelgan. Shaxarning 5 ta darvozasi bo'lgan va atrofi chuqur xandahlar bilan o'ralgan. 7-9 asrlardan Arab yilnomalarida Axsikent "Fraganik" nomi bilan atalgan. 9-10 asrlarda shahar eng gullagan davri bo'lgan. Shahar qoraxitoylar keyinchalik 1219- yilda Chingizxon sarkardalaridan biri Jebe No'yon tomonidan talon taroj qilingan. 15 asrda Umarshayx Mirzo Farg'ona vodiysida hukmronlik qilgan vaqtlar Axsikentni asosiy qarorgohiga aylantiradi. Boburning bolalik chog'lari ham shu yerda o'tadi. Axsikent 17 asrda tannazulga yuz tutadi va 1621- yilda zilzila oqibatida vayronaga aylanadi. Bundan tashqari To'raqo'rg'on tumanida ko'plab ziyoratgohlar va dam olish joylari mavjud. Tumanda joylashgan "Porosmon ota" ziyoratgohi mustaqillik yillarida qayta tiklandi. To'raqo'rg'on tumanidan juda ko'plab ilmiy marifatchi insonlar yetishib chiqqan. Misol qilib Is'hoxon To'ra Ibratni olishimiz mumkin. Ibrat 1862-yilda To'raqo'rg'on tumanida tavvallud topgan bo'lib, o'sha vaqtlar tuman Qo'qon xonligiga tarkibida bo'lgan. Ibrat boshlang'ich ta'limni madrasada olgan. Keyinchalik 1878-1886 yillar Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida o'qigan. O'sha davrda Qo'qon adabiy muhidining yirik nomoyondalari Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Nodim Namongoniyalar bilan yaqin munosabatda bulgan. Bundan tashqari sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qilib Jidda, Istanbul, Sofiya, Rim, Avg'aniston, Hindiston kabi davlatlarga borib uyerni tillarini mukammal o'rganadi. Chet el hayoti madaniyatini ham o'rganadi. Tumanga qaytgach olti tilni o'z ichiga olgan "Lug'ati Sitta aslina" yani olti til lug'ati asarini yozadi. 1901- yilda Toshkentda Ilin bosmoxonasida bu asarini chop ettiradi. Bundan tashqari zamonaviy rus maktablaridagi ilg'or metodikani tatbiq qilgan o'z maktabiga asos solidi. Ammo bu maktab uzoq faoliyat ko'rsata olmaydi. 1829-1896 yillar Hindistonning eng

kata port shaharlari Bombay va Kalkuttada yashaydi. Bu yerda ko'p ishlaydigan arab, fors, hind, urdu va ingliz tillarini o'rganadi. O'z davrida Ibrat 16 tilni mukammal bilganligi o'zi haqidagi aftobiografiyasida yozib qoldirgan. Tumanda 1908- yilda "Fotografiya Ishoqiya" deb nomlangan fotostudiyaga asos solidi. O'sha davrlarda u yerda yashovchi aholi uchun bu judda kata yangilik bo'ladi. O'zining istirohat bog'ini tashkil etadi. Ko'plab mamlakatlarda o'rgangan juda ko'p yangiliklarini o'zi bilan olib kelgan va o'zi muallimlik qilgan maktab o'quvchilariga o'rgatgan. Hozirgi kunda tumanda Ibrat nomidagi istirohat bog'i mavjud bo'lib u yerda Is'hoxon To'ra Ibrat haykali qat ko'tarib turadi. Bog' turli noyob daraxtlar, chiroyli manzasi va zamonaviy favvorasi bilan juda mashxur. Ibrat bog'i yoniga prizident tashabbusi bilan tillarga ixtisoslashgan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti tashkil etilgan. Ibrat bog'i yodida qadimgi madrasa o'rniga Ibrat muzeyi tashkil etilgan bo'lib, u yerda o'zi yozgan asarlar, metnat faoliyati, turli mamlakatlardan olib kelgan moddiy ashyolaridan tashqari hozirgi kunda uning avlodlari muzey ixtiyoriga topshirgan shaxsiy buyumlari ham saqlanadi.

Xulosa: To'raqo'rg'on tumani o'zining so'lim tabiati, iqlimi tarixiy obidalari, muzeylari bilan ko'pchilikni o'ziga chorlaydi. Tumanda tashkil etilgan Ibrat, O'lkashunoslik, Axsikent yodgorliklari davlat tomonidan muhofazaga olingan. Tumanning har bir joyi o'zining uzoq utmishiga egadur. Bundan tashqari tumanda turli xil qadim zamonlardan saqlanib qolgan urf odatlar ogzaki tarix deya yuritiladigan rivoyatlar o'zing qizg'in utmishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensklopediyasi(2000-2005)
2. Tuman haqida malumot, arxivdan qaraldi; 19-mart 2024-yil
3. Topografichna karta K-42-131(Wayback Machine) saytida 1014-08-12 sanasida arxivlangan